

Date: 11th February-2026

**XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING
BARQAROR RIVOJLANISHI IQTISODIYOT DRAYVERI**

O'tamuratov Asfandiyor Rustamovich,

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi



Mazkur tezisda tadbirkorlik faoliyati kichik biznes, xususiy tadbirkorlik asosida rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutayotganligi, Xorazm viloyatida kichik biznesning YAHM dagi ulushi tahlili, kichik biznesning rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili, tadqiqotlar natijasida ushbu soha faoliyati bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Davriy iqtisodiy tanazzul paytida bandlik muammolarini hal qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ortiqcha ishchi kuchini o'zlashtirishda kichik biznes muhim ijtimoiy funktsiyani bajaradi.

Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlik jadal rivojlanib borayotgan bo'lsada, mazkur sohani yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz uchun bozor iqtisodiyoti subyektlarining tadbirkorlik faoliyati masalalari yangilik emas. Respublikamiz uchun yangilik iqtisodiyotni bozor qonunlari talablar asosida shakllantirib, ishlab chiqarishni erkin raqobat muhitida olib borishdir.

Tadbirkorlik iqtisodiyot subyektlarining mavjud iqtisodiy, tabiiy, mehnat va intellektual salohiyatlarini oqilona sarflab, samaraliroq natijalarga erishishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, u bozor munosabatlari rivojlanishi oxir-oqibatida iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2025-yil 1-yanvar holatiga 35667 ta yoki 2019-yil 1-yanvar holatiga (12576 ta) nisbatan 2,8 barobar ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qilinishiga turtki bo'ldi.

Yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 3,5 borabar ko'p tashkil qilinib, 6860 6347 tani tashkil qilgan.

2024 yilda kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining YaHMDagi ulushi 72,3 foizni tashkil qildi.

2024 yilda kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6106,0 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,0 foizi) yoki 2018 yilga nisbatan 16,1 foiz punktga kamaygan;

-615,7 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi, 2018-yilga nisbatan bandlar soni

Date: 11th February-2026

42,3 ming kishiga oshgan bo'lib, jami iqtisodiyotda bandlarning 79,3 foizini tashkil qilgan.

2025-yilning 1-yanvar holatiga Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 20528 tani tashkil qilgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 86,1 foizga teng, ya'ni 3326 ta subyektga kamaygan. Kichik tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 0,2 foiz punktga kamaygan, 2023-yilda 69,9 foizdan 2022-yilda 69,7 foizga tushgan. Bu kamayish viloyatda kichik biznes rivojlanishida qiyinchiliklar mavjud ekanini ko'rsatishi mumkin. Kamayish sabablari iqtisodiy omillar, ya'ni yirik biznes raqobati, viloyatdagi iqtisodiy siyosat yoki mahalliy shart-sharoitlarga bog'liqligi, kichik tadbirkorlikning umumiy iqtisodiyotdagi roli kamayganini, bunga e'tiborni yirik bizneslarga hamda sanoat korxonalariga qaratilayotganligini, raqobat, kichik tadbirkorlik sektorining nisbatan sust rivojlanishi bo'lishi mumkin.

Kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 2022-yilga nisbatan 36,4 ming kishiga oshgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda band bo'lganlar orasida kichik tadbirkorlikda ishlovchilar ulushi 1,2 foiz punktga oshgan. Bu kichik biznes iqtisodiyotning muhim tarmog'i ekanligidan, uning ahamiyati oshayotganini, sohadagi ish o'rinlari ko'payganidan, ko'plab ish o'rinlari shu sektorda yaratilayotganini dalolat beradi.

Tashqi muhitdagi o'zgarishlar, resurslardan foydalanish va davlat yordami bu sektor rivojiga ta'sir qiluvchi muhim omillar bo'lib qoladi.

Asosiy ko'rsatkichlar o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatdiki, kichik biznesning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirida roli katta. Tadqiqotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

viloyatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat boshqaruvi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zaruriy shart-sharoitlarini yaratib berish, ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari viloyat aholisining iqtisodiy holatlarini e'tiborga olgan holda narxlarining asossiz o'sishini oldini olish;

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes innovatsion rivojlanish uchun eng mobil va samarali hisoblanadi. Viloyatdagi ilmiy muassasalar bilan kichik biznes sub'ektlarining xamkorligini yo'lga qo'yish orqali innovatsion, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish;

avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalarida bo'yicha kichik biznes va yirik sanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiya deyarli yo'q, buning natijasida aksariyat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va butlovchi qismlar import qilinishini inobatga olib, sanoat kooperatsiyalarini tashkil qilish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida mahalliy lashtirishni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish;

kichik biznes va tadbirkorlik shiddatli raqobat sharoitida o'z o'rnini topish uchun haqiqiy noyob mahsulotni topishi kerak va bu moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bunda ortiqcha buyurakratik to'siqlarsiz kredit resurslariga bo'lgan talablarini qondirish, turli kredit takliflarini ishlab chiqish, kreditlar bo'yicha garov ta'minoti va foizlarni qisman qoplash maqsadida Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini yanada kuchaytirish;

tadbirkorlik faoliyati o'zining xususiyati va turlariga qarab, qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida mustaqil subyekt sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida



Date: 11th February-2026

oʻzaro bogʻliqlikda faoliyat olib borishlari zarur. Buning uchun viloyat tumanlarida innovatsion moliyalashtirish, pul-kredit, axborot, konsalting, franchayzing, injiring va lizing xizmatlari tadbirkorligini raqobat asosida tashkil etish zarur deb hisoblaymiz.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

